



**YURIDIK SHAXSNI TUGATISH BILAN BOG'LIQ MASALALARING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

Ibratova Feruza Boboqulovna

Toshkent davlat yuridik universitetining professori, yuridik fanlar doktori

To'ychiyeva Malika

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuridik shaxsni tugatishga oid O'zbekiston Respublikasida mavjud qonunchilik hujjatlari keltirib o'tilgan hamda tahlil qilingan bo'lib, mamlakatimizda bu qanday usul va vositalar bilan tartibga solingani bayon etilgan. Bir qator huquqshunos olimlarning qarashlari yoritilgan holda, yurtimizda ushbu tizimda mavjud ayrim muammolar xususida so'z yuritilgan. Yuridik shaxsni tugatishga oid xorijiy tajriba o'rganilib, tahlil qilingan. Mazkur sohaga oid ayrim xulosa va takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: yuridik shaxs, yuridik shaxsni tugatish, qayta tashkil etish, ixtiyoriy tugatish, majburiy tugatish.

**SPECIFIC CHARACTERISTICS OF ISSUES RELATED TO LIQUIDATION OF
LEGAL ENTITIES**

Abstract: In this article, the existing legal documents in the Republic of Uzbekistan on the liquidation of a legal entity are cited and analyzed, and the methods and means by which it is regulated in our country are described. The views of a number of legal scholars were highlighted, and some problems existing in this system in our country were discussed. The foreign experience of liquidation of a legal entity has been studied and analyzed. Some conclusions and proposals related to this field have been put forward.

Keywords: legal entity, legal entity liquidation, reorganization, voluntary liquidation, compulsory liquidation.

**ОСОБЕННОСТИ ВОПРОСОВ, СВЯЗАННЫХ С ЛИКВИДАЦИИ
ЮРИДИЧЕСКОГО ЛИЦА**

Аннотация: В данной статье приводятся и анализируются действующие в Республике Узбекистан правовые документы о ликвидации юридического лица, а также описываются методы и средства, с помощью которых она регулируется в нашей стране. Были освещены взгляды ряда ученых-правоведов, обсуждены некоторые проблемы, существующие в этой системе в нашей стране. Изучен и проанализирован зарубежный опыт ликвидации юридического лица. Сделаны некоторые выводы и предложения, относящиеся к этой области.

Ключевые слова: юридическое лицо, ликвидация юридического лица, реорганизация, добровольная ликвидация, принудительная ликвидация.



O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lgan yuridik shaxsni tugatishga oid huquqiy tartibga solish mexanizmlarini har tomonlama o‘rganish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Boisi, uni tartibga solivchi fuqarolik qonunchiligi bir qator huquqshunoslarda ayrim savollarni keltirib chiqaradi⁵⁶. Shu jumladan, A.V.Prozvanchenkovning so‘zlariga ko‘ra, yuridik shaxsni tugatish bilan bog‘liq qonun hujjatlarining yuqori sifatini ta’minlash masalalari faqat nazariy emas, tabiiy va obyektiv muammodir. Shuning uchun, yuridik shaxslarni tugatish masalalari, ro‘yxatga olish bosqichlari soni, ularning ro‘yxatdan o‘tish vaqtini qisqartirish va ro‘yxatga olish xarajatlarini kamaytirish davlatning diqqat markazida bo‘lishi juda muhim hisoblanib, bu mamlakat iqtisodiy o‘sishining zarur shartdir⁵⁷.

Aytib o‘tish lozimki, yuridik shaxslarning faoliyatini tugatish bilan bog‘liq (bankrotlik masalalaridan tashqari) masalalarda tugatish tartib-qoidalarini amalga oshirish samaradorligini ham hisobga olish kerak⁵⁸. Bular, uni huquqiy tartibga solish, minimal va maksimal talab qilinadigan vaqt, tugatilayotgan kompaniya kreditorlari (investorlari) manfaatlarini himoya qilish va boshqalardir⁵⁹.

O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxsni tugatish bilan bog‘liq masalalar bir qator qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi⁶⁰. Bular:

- O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan hamda qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy korxona to‘g‘risida”gi Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonun va boshqalar.

Shu o‘rinda yuridik shaxsni tugatish to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 53-moddasiga asosan, yangi yuridik shaxs tuzmagan hamda huquqiy vorislik tartibida xuquq va majburiyatlarini boshqa yuridik shaxsga o‘tkazmagan holda faoliyatini tugatish tushuniladi⁶¹. Bunda tugatilayotgan yuridik shaxsning barcha huquq va majburiyatları to‘liq bekor bo‘ladi. Yuridik shaxsni tugatishning ikki xil shakli mavjud bo‘lib, ular ixtiyoriy hamda majburiy tugatish bo‘lib hisoblanadi⁶².

Yuridik shaxsni ixtiyoriy tugatish uning muassislarini (ishtirokchilarini)ning yoki ta’sis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga muvofiq,

⁵⁶ Ibratova F. Foreign Practice of Use of Mediation on Collective Labor Disputes //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 57-62.

⁵⁷ Прозванченков А.В. Сравнительно-правовой анализ признаков банкротства // Ленинградский юридический журнал. – 2015. № 3. – С. 130-135.

⁵⁸ Babakulovna I. F., Abdurazzakovna T. T. Ibratova FB, Tashbaeva TA Mediation agreement on a labor dispute: theory and practice //Editorial team. – 2021. – T. 2021. – C. 45.

⁵⁹ Ibratova F., Ahadova M., Rozmetova A. APPLIED JURISPRUDENCE//Editorial team,(2021).–2021.

⁶⁰ Ibratova F. B. et al. Effective and Reasonable Implementation and Application of the Principle of Ability to Be Heard Under Foreign and National Legislation of the Republic of Uzbekistan //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 18. – C. 485-501.

⁶¹ Babakulovna I. F., Ibraimovich E. B., Sodikovich O. S. SIMPLIFIED PRODUCTION IN THE ECONOMIC PROCESS AND ITS FEATURES: NATIONAL AND FOREIGN APPROACH //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – C. 42-50.

⁶² Ibratova F. Bankrotlik to ‘g ‘risidagi ishlarda prokuror ishtiroki.



yuridik shaxsning faoliyat ko'rsatish muddati tugashi, uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadga erishilganligi va boshqa shu kabi asoslarda amalga oshiriladi⁶³.

Yuridik shaxsni majburiy tugatish faoliyat ruxsatnomasiz (litsenziyasiz) amalga oshirilgan yoki qonun tomonidan ta'qiqlangan faoliyat amalga oshirilgan, olti oy mobaynida (savdo va savdo-vositachilik yuridik shaxssi esa – uch oy mobaynida) bank hisob varaqlari bo'yicha pul operatsiyalarini o'tkazish bilan bogliq moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilmaganda, qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yil ichida ustav fondi ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorda shakllantirilmagan taqdirda, bankrot bo'lganda va amaldagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda sudning qaroriga muvofiq amalga oshiriladi⁶⁴.

Ergashev A.ning fikriga ko'ra, mavjud kodifikatsiyalangan qonunlar orasida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi barqarorligi, munosabatlarni tartibga solishda bevosita qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Bu holat, shubhasiz, qonun chiqaruvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi normalarini shakllantirishda asosiy konseptual yondashuvlarning to'g'riliqi bilan izohlanadi. Shu bilan birga yuridik shaxsni tugatish to'g'risidagi amaldagi normalarning ayrimlarida kamchiliklar mavjud bo'lib, bu ba'zi holatlarda qarama-qarshiliklarga olib keladi⁶⁵.

Ushbu tahlil asosiy e'tiborni yuridik shaxslarni tugatish bilan bog'liq hal etilmagan muammolarga qaratadi⁶⁶. Ko'pincha, yuridik adabiyotlarda yuridik shaxsni "qayta tashkil etish"ning keng tarqalgan sharxida, biz tomonidan fuqarolik qonunchiligidagi ko'rib chiqilgan yuridik shaxni tugatish tushunchasi bilan bir xil deb qaraladi. Biroq, e'tiborga loyiqliki, fuqarolik qonun hujjatlarida qayta tashkil etish tushunchasini ham, yuridik shaxsning majburiy yoki ixtiyoriy tugatilishi tushunchasini ham belgilanmagan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, qonunchilikda ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyati yoritilishi lozim deb hisoblanadi⁶⁷.

Shu o'rinda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganadigan bo'lsak, Litvada yuridik shaxsni tugatish quyidagi asoslar mavjud bo'lganda amalga oshiriladi: agar reestrda ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs o'z ma'lumotlarini Yuridik shaxslarning reestrda besh yil ichida yangilamasa va yuridik shaxs o'z faoliyatini tugatgan yoki shunday deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa yoki ushbu Kodeksning 2.66-moddasi 4-bandida ko'rsatilgan yigirma to'rt oydan ortiq moliyaviy javobgarlik muddatida korxona moliyaviy hujjatlarni taqdim etmagan bo'lsa va reestr ma'muriga yoki ularning sabablari to'g'risida yoki yuridik

⁶³ Babakulovna I. F. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team.

⁶⁴ Корпоратив низолар: тушунчаси, турлари ва уларни судда кўришнинг ўзига хос жиҳатлари: судьялар ва аҳоли учун амалий кўлланма / М.Сайдов. – Тошкент: , 2019. – 100-101-6.

⁶⁵ Эргашев А. ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЛИКВИДАЦИИ ЮРИДИЧЕСКИХ ЛИЦ В МЕЖДУНАРОДНОМ ЧАСТНОМ ПРАВЕ // Universum: экономика и юриспруденция: электрон. научн. журн. 2021. 11(86).

⁶⁶ Boboqulovna I. F., Orif o'g'li R. B. MEDIATSIYA–OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 80-85.

⁶⁷ Boboqulovna I. F., Mamarjon o'g'li R. M. NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISHDA MEDIATSIYANING O'RNI VA MEDIATSIYA JARAYONINING MOHIYATI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – Т. 3. – №. 25. – С. 185-195.



organning boshqaruv organlari a'zolari iste'foga chiqqanidan keyin kvorum yo'qligi sababli boshqaruv organlari qaror qila olmaganligi to'g'risida xabar bermagan va vaziyat olti oydan ortiq davom etsa yoki yuridik shaxsning boshqaruv organlari a'zolari bilan yuridik shaxsning ro'yxatga olish idorasida yoki yuridik shaxslar reestriga manzili ko'rsatilgan 85 ta manzilda murojaat qilishning iloji bo'lmasa, reestrni ro'yxatga oluvchi yuridik shaxsni tugatishni boshlash huquqiga ega⁶⁸.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda yuridik shaxni tugatish bilan bog'liq hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator masalalar mavjud bo'lib, ushbu muammolarni xorijiy davlatlar tajribasiga tayangan holda hal etish hamda maqbul yechimlarni qonunchiligidizda mustahkamlash mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o'rinn tutadi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ibratova F. Foreign Practice of Use of Mediation on Collective Labor Disputes //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 57-62.
2. Прозванченков А.В. Сравнительно-правовой анализ признаков банкротства // Ленинградский юридический журнал. – 2015. № 3. – С. 130-135.
3. Babakulovna I. F., Abdurazzakovna T. T. Ibratova FB, Tashbaeva TA Mediation agreement on a labor dispute: theory and practice //Editorial team. – 2021. – Т. 2021. – С. 45.
4. Ibratova F., Ahadova M., Rozmetova A. APPLIED JURISPRUDENCE//Editorial team,(2021).–2021.
5. Ibratova F. B. et al. Effective and Reasonable Implementation and Application of the Principle of Ability to Be Heard Under Foreign and National Legislation of the Republic of Uzbekistan //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 18. – С. 485-501.
6. Babakulovna I. F., Ibriyimovich E. B., Sodikovich O. S. SIMPLIFIED PRODUCTION IN THE ECONOMIC PROCESS AND ITS FEATURES: NATIONAL AND FOREIGN APPROACH //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – С. 42-50.
7. Ibratova F. Bankrotlik to 'g 'risidagi ishlarda prokuror ishtiroki.
8. Babakulovna I. F. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team.
9. Корпоратив низолар: тушунчаси, турлари ва уларни судда кўришнинг ўзига хос жиҳатлари: судьялар ва аҳоли учун амалий қўлланма / М.Сайдов. – Тошкент: , 2019. – 100-101-б.
10. Эргашев А. ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЛИКВИДАЦИИ ЮРИДИЧЕСКИХ ЛИЦ В МЕЖДУНАРОДНОМ ЧАСТНОМ ПРАВЕ // Universum: экономика и юриспруденция: электрон. научн. журн. 2021. 11(86).
11. Boboqulovna I. F., Orif o'g'li R. B. MEDIATSIYA-OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 80-85.

⁶⁸ Feruza I., Madina A., Asal R. LEGAL ISSUES OF JUDICIAL PROTECTION IN THE ECONOMIC COURT IN UZBEKISTAN //International journal of professional science. – 2022. – №. 4. – С. 5-10.



12. Boboqulovna I. F., Mamarjon o'g'li R. M. NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISHDA MEDIATSIYANING O'RNI VA MEDIATSIYA JARAYONINING MOHIYATI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – T. 3. – №. 25. – C. 185-195.

13. Feruza I., Madina A., Asal R. LEGAL ISSUES OF JUDICIAL PROTECTION IN THE ECONOMIC COURT IN UZBEKISTAN //International journal of professional science. – 2022. – №. 4. – C. 5-10.